



## FARG‘ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2023 - yil 6 - sentabr

94-11-154-F/23

Buvayda tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 28 va 73-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan;**

1. Tuman hokimi xo‘jalik ishlari mudiri V.Qoraboevning bildirishnomasini inobatga olib, tuman hokimligi moddiy-texnika ta‘minotini yaxshilash, tuman hokimligi xizmat mashinalarining ishda foydalanishda qiyinchiliklar keltirib chiqarayotganligini inobatga olgan holda mazkur xizmat avtomashinalarini joriy ta‘mirlash va ularga ehtiyot qismlari hamda shinalar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun 26.4 (yigirma olti million to‘rt yuz ming) mln.so‘m, led lampalar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun 3.4 (uch million to‘rt yuz ming) mln.so‘m, hamda tuman hokimligiga o‘rnatilgan video kameralarni ta‘mirlash xizmati uchun 9.2 (to‘qqiz million ikki yuz ming) mln.so‘m jami 39.0 (o‘ttiz to‘qqiz million) mln.so‘m mablag‘ tuman mahalliy budjetining 2023 yil zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Buvayda tumani Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limining 2023-yil 15-avgustdagi 526-sonli xatini inobatga olib, bo‘limning moddiy-texnika ta‘minotini yaxshilash maqsadida, monoblok kompyuterlar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun 52.8 (ellik ikki million sakkiz yuz ming) mln.so‘m mablag‘, tuman mahalliy budjetining 2023 yilgi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tuman Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga ajratilsin.

3. Tuman Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (M.Isroilov) va tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.G‘aniyev)ga ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning belgilangan tartibda maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash, moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan

hujjatlarni tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi hamda g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligining Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag'lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro'yxatga olish, tuman G'aznachilik bo'linmasi (Sh.Soliyev)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish yuklatilsin.

5. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimi birinchi o'rinbosari D.Mirzaxalilov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**Odiljonovich I. B.**